SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11

2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I11Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 11 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*
ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TOʻPLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ........................................ 11-14

*Тағбаев Амирбек Аширбаевич*
Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ........................................ 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*
ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ........................................ 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ........................................ 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*
НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ........................................ 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимахаматович*
ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) .......... 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

**8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*
ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........................................ 63-70

*Shao Junling*
ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KENG KOʻLAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YOʻLLARI ........................................ 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*
BANK XIZMATLARIGA BOʻLGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YOʻLLARI ........................................ 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*
МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ........................................ 90-96

*Yakubova Samira*
LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING ........ 97-102

*Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich*
OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI ........ 103-109

*Egamberdiyeva Salima Rayimovna*
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 110-118

*Xolmamatov Diyor Haqberdievich*
SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH ........ 119-127

*Gafurova Dilshoda*
INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS ........ 128-132

*Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich*
TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH ........ 133-139

*Raxmonov Mirvoxid Rajabovich*
NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI ........ 140-149

*Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li*
DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI ........ 150-159

*Aziza Umarova*
AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 160-167

*Абдуллаев Бунёд Ўткирович*
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 168-178

*Matjonov Bekjon Ravshonbekovich*
SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN ........ 179-185

*Алиматова Наргис Абдухалиловна*
КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ ........ 186-197

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna*
F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOIY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI ........ 198-204

*Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich*
INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOIY TABIATI ........ 205-211

*Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна*
РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯУ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 212-218

*Urinboyev Dilmurod Tura oʻgʻli*
HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI ........ 219-225

*Яздонов Зикирилло Шукуриллоевич*
АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ ........ 226-231

*Nabiyev Maxsud Abdumannonovich*
IQTISODIY MADANIYATNINGMAZMUNIVAMOHIYATI ........ 232-238

*Haydaraliyev Shuhratjon*
MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 239-243

*Хамраев Сардорбек Шарафутдинович*
ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ ........ 244-250

*Xashimov Sheraxon Joʻraxonovich*
OʻZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN OʻRNI ........ 251-260

*Хатамова Рашида Закиржановна*
ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ ........ 261-266

*Патиев Холдор Икромович*
ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ ........ 267-275

*Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna*
FARGʻONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOIY JARAYONLARDA NAMOYON BOʻLISH XUSUSIYATLARI ........ 276-280

*Raximova Rayxon Abdurasulovna*
GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING OʻZARO ALOQADORLIGI ........ 281-287

*Raxmankulov Farxod Raximkulovich*
MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOIY MASʼULIYAT TUYGʻUSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 288-292

*Shirinov Anvar Qanoatovich*
MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI ........ 293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*
"OSOR AL-BOQIYA" – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI ................ 300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*
IJTIMOIY DAVLATDA IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASH VA IJTIMOIY INSTITUTLARNING MAQSADI ................ 305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*
MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI ................ 312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*
DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI ................ 321-326

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ауезмуратова Нуржамал Дастенбаевна*
КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА ................ 327-332

*Olga Filippova*
ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ................ 333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*
INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O'ZBEK TILI O'ZLASHISH MASALALARI ................ 346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*
LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ................ 352-357

*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna, Ibragimova So'g'diyona Ikrom qizi*
INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING QO'LLANILISHI ................ 358-362

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Тўраев Сардор Абдихаким ўғли*
ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ................ 363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*
ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ................ 372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*
ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА ................ 378-385

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*
MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIVERGENT TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ................ 386-390

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*
O‘ZBEKISTON OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O‘QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH ........ 391-400

*Uralova Muxabbat Sanjar qizi*
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH........ 401-406

*Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich*
METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES ........ 407-411

*Abdusamatov Alisher Sobirovich*
TA’LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV ........ 412-417

*Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna*
TA’LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O`RNI ........ 418-422

*Babayeva Maxfuza Abduvaitovna*
TA’LIMDA FANLARARO BOG’LANISHNING AHAMIYATI ........ 423-429

*Nazarova Zarrina Allaberdiyevna*
MAKTAB O‘QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRIRSH USULLARI........ 430-435

*Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna*
O‘QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI ........ 436-442

*Умаров Азиз Авазович*
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ........ 443-447

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
INGLIZ TILI DARSLARIDA O’QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)........ 448-453

*Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna*
DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQARISH METODIKASI ........ 454-461

*Komilov Nodirbek Bokijonovich*
THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS ........ 462-466

*Sapieva Nargiza Mamayusufovna*
IQTIDORLI O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY–PEDAGOGIK QO'LLAB–QUVVATLASH ........ 467-478

*Norqobilova Rayxona Davlatovna*
XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI ........ 479-484

*Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich*
SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O'QITISH USULLARINI TANLASH ........ 485-492

*Irgasheva Umida Raimjanovna*
TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 493-498

*Turayeva Lolaxon Yuldashevna*
ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O'RGANISH VA NAMOYISH ETISH ........ 499-505

*Kushakova Gulnora Egamkulovna*
TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ........ 506-510

*Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna*
OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI ........ 511-518

*Xasanova Gulnoza Raxatjanovna*
KREDIT-MODULLI TA'LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI ........ 519-525

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 11 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Adizova Nigora Baxtiyorovna**
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

## MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIVERGENT TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Divergent tafakkur tushunchasi eng umumiy koʻrinishida muammolarni hal etishning muqobil variantlarini koʻra olish qobiliyatini aks ettiradi. Divergent tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi kreativlik bilan solishtirganda oldindan ayta olish mumkin boʻlgan va tashqaridan boshqarish mumkin boʻlgan jarayonligi haqida fikr mulohazalar keltirilganmiz.

**Kalit soʻzlar:**, tafakkur, motiv, faoliyat, divergent reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik, ta'lim-tarbiya, didaktik oʻyinlar, pedagogik texnologiya.

**Adizova Nigora Bakhtiorovna**
Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute

## EDUCATION AND DEVELOPMENT OF DIVERGENT THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON PROBLEM EDUCATION

**Abstract.** The concept of divergent thinking in its most general form reflects the ability to see alternative solutions to problems. We argue that the formation and development of divergent thinking is a predictable and externally controlled process compared to creativity.

**Key words:** thinking, motive, activity, divergent reproductive, creative thinking, independent, heuristic, learning, didactic games, educational technology.

**Адизова Нигора Бахтиоровна**
Доцент Бухарского государственного педагогического института

## ОБРАЗОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** Понятие дивергентного мышления в самом общем виде отражает способность видеть альтернативные варианты решения проблем. Мы утверждаем, что формирование и развитие дивергентного мышления является предсказуемым и управляемым извне процессом по сравнению с творчеством.

**Ключевые слова:** мышление, мотив, деятельность, дивергентное репродуктивное, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое, обучение, дидактические игры, педагогическая технология.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N52

Kelajak avlodni jamiyat taraqqiyoti uchun zarur boʻlgan bilimlarni “chiqarish” va koʻnikmalarga ega boʻlish qobiliyati bilan tarbiyalash uchun oʻqituvchining malakasini oshirish shaxsning salohiyatini, uning ijodiy bazasini qayta ishlab chiqarish sohasini ifodalashga qaratilishi kerak, pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur.

Hozirgi zamonda boshlangʻich sinf oʻqituvchisi nafaqat mustahkam, chuqur bilimga ega boʻlishi, balki ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni gʻayritabiiy, mustaqil ravishda ijodiy hal qila oladigan va oʻquvchilarni divergent tafakkurini rivojlantiradigan boʻlishi kerak.

Sharq ma’naviy merosida ham shaxs tafakkuri muammosi turli yondashuvlar asosida tahlil qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Forobiy ta’limning nazariy muammolari, bilimlarni egallash, fikrlashning falsafiy, fiziologik va psixologik asoslari haqida keng toʻxtaladi. U obyekt va subyektning oʻzaro aloqasi, shaxsda kechuvchi murakkab fiziologik-psixik jarayonlar tahliliga katta e’tibor qaratadi. Olimning fikricha, inson ma’naviyatining oliy pogʻonasi ruh, aql va tafakkur boʻlib, ular insonning bilish faoliyatiga xos boʻlgan oʻziga xos shakllarda namoyon boʻladi.

Forobiy insonni mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli deb ataydi. U oʻzining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama oʻrganish qobiliyatiga egadir. Inson aqli yordamida butun mavjudotning mohiyatini tushunadi. “Aql, — deydi u, — jismlarni bunday xislatlardan holi holda tekshirganda u faqat jismlarning mohiyati nimadan iborat ekanligini va sezgilardan nimalar mavhumlashtirganini aniqlashga qaratilgan boʻladi. Jismni u bilan bogʻliq boʻlgan belgilardan ajratib oluvchi aql faoliyati shu jismning faqat mohiyatini tekshirish uchun amalga oshiriladi” [6, 123].

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino haqida “Oʻrta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” nomli asarda batafsil toʻxtalib oʻtilgan. Uning “Tadbiri manozil” (“Bolani maktabda oʻqitish va tarbiyalash”) asarida oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini yaxshilash, bilim berish jarayonining samaradorligini oshirishda fanni egallashga qiziqish yuzaga kelishi va musobaqalashish istagi tufayli oʻquvchilarni birga oʻqitish zarurligiga diqqat qaratadi.

Ibn Sino suhbatdoshiga hurmat bilan yondashish haqida toʻxtalib, shunday deydi: “Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga oʻylab, fikr yuritib koʻrishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki doʻsting sening soʻzlaringga va nasihatlaringga e’tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga koʻchir” [4, 145].

Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol-xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi. Uning yordamida voqea va hodisalarni bir- biriga chogʻishtirib, abstraksiyalash bilan haqiqatni yolgʻondan ajratish mumkin, xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam saqlanib qoladi va idrok qilingan bir obyektni ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida obyektiv voqelikning aks ettirilishidir, deb biladi.

Hozirgi vaqtda boshlangʻich ta’limda asosiy e’tibor oʻquvchilarning mantiqiy ijodiy yoki nazariy tafakkurlarini rivojlantirishga qaratiladi.

Pedagogikada oʻquv jarayonida shaxsning tafakkurini samarali shakllantirish vazifasi oʻquv materialining mazmunini oʻzlashtirish yoʻli bilan yoki oʻquvchilar asosiy aqliy harakatlari orqali aqliy amallarga jalb etish va turli muammolarni hal qilish yordamida yechiladi.

Zamonaviy maktabda an’anaviy ta’lim tizimi oʻtgan asrning oʻttizinchi yillarida J.Piaje konsepsiyasi va P.P.Blonskiy tomonidan ishlab chiqilgan bolaning aqliy rivojlanish nazariyasi asosida shakllandi. J.Piaje bolaning rivojlanishi “kutilmaganda” uning ichki qonunlariga

muvofiq tarzda amalga oshadi deb hisoblagan. P.P.Blonskiy esa ta’lim tizimi ruhiy rivojlanishning shakllangan darajasiga tayanishi va mashq hamda shakllangan ruhiy funksiyalarga asoslanishi lozim deb hisoblagan [1]. Bundan, ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkil etilishi adekvat boʻlishligi zarur ekanligi kelib chiqadi [2].

Ta’limni rivojlantirish nazariyasiga alohida e’tibor qaratilib, unga ijodiy tushuncha berilgan. Turli xil oʻqitish usullarini bolaning rivojlanishiga ta’sirini oʻrganib chiqilib, oʻquvchilarning umumiy rivojlanishi uchun juda samarali boʻlgan boshlangʻich ta’limning didaktik tizimi yaratilgan[4,82]. Tizimning asosida quyidagi didaktik prinsiplar yotadi:

-yuqori darajadagi murakkablikda oʻqitish; nazariy bilimlarning yetakchilik roli;

-dasturiy materiallarni tez-tez oʻrganish;

-barcha oʻquvchilarni rivojlantirish boʻyicha muntazam tizimli ravishda ish olib borish;

-maktab oʻquvchilarining oʻquv jarayoni toʻgʻrisida xabardorligi, oʻqitish mazmunining oʻzgachaligi, chunki u maktab oʻquvchilariga fan, adabiyot, san’at, moddiy madaniyat qadriyatlariga asoslangan dunyo haqida umumiy tasavvurni beradi.

Ta’lim mazmunining boyitilishi, yangi oʻquv fanlarini oʻquv dasturiga kiritish orqali erishiladi. Oʻqitish metodlari va uslublari uchun koʻp qirralilik, jarayonlilik, variativlik va ziddiyatlilikni (qarama- qarshiliklarni) hal qilish bilan tavsiflanadi. Yangi didaktik prinsiplarga asoslangan metodlar ta’lim mazmunini toʻgʻridan-toʻgʻri aks ettirish natijasi boʻlmagan aqliy faoliyat shakllarining paydo boʻlishiga yordam beradi, ammo pedagogik ta’sirlarni sintez qilish, umumlashtirish asosida, ya’ni psixologiyaning ichki ishi natijasida yuzaga keladi. Tafakkur sohasida bunday sintez nafaqat aqliy faoliyatning usullarini oʻzlashtirishga, balki tafakkurning haqiqiy rivojlanishiga olib keladi. Bu ta’limning didaktik asosi oʻquvchilarning oʻzlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat orqali shartlangandir. Oʻquvchilar nafaqat muammolarni yechibgina qolmay, balki vazifaning mazmuni va uni hal qilish yoʻllarini muhokama qilishadi, shuningdek turli xil hodisalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, xulosalar chiqarish hamda qonuniyatlarni aniqlashtirishdan iborat hisoblanadi.

Vazifalarning tavsifi – aqliy faoliyatni yuklanganlik holatiga keltirish uchun material taqdim etadi. Oʻqituvchi jamoaviy izlanishni tashkillashtiradi, kerakli fikrlarni toʻplaydi, rahbarlik amalga oshiradi va oʻquvchilarni ularni izlashga chorlaydi.

Ma’lumki, turli xil muammolarni hal qilishning umumlashtirilgan usullarini oʻzlashtirish samarali tafakkur samaradorligini oshirishning muhim usuli hisoblanadi. Chunki, tafakkurda yetakchi rol umumlashtirishni shakllantirishga, ya’ni muammolar elementlari oʻrtasida munosabatlarni, bogʻlanishlarni oʻrnatishga va shu munosabatlarni oʻxshash vaziyatlarga oʻtkazishga bogʻliq. Umumlashtirish – faoliyatning barcha sohalariga, shu jumladan ta’limga ham tegishli boʻlgan invariant tavsifdir. Kengaytirilgan shaklda bu pozitsiya mazmunli umumlashtirish nazariyasida oʻz aksini topgan [6]. Mazkur nazariyaning yetakchi pedagogik gʻoyasi — nazariy bilim va nazariy tafakkur asosida maxsus tashkil etilgan mashgʻulotlar orqali bolalarda ma’lum intellektual qobiliyatlarni shakllantirish mumkin, degan gʻoyani ilgari suradi. Bunday ta’limning asosini mazmunli umumlashtirish tamoyili tashkil etadi, unga koʻra bola atrofdagi dunyoni insoniyat bilimi ilm-fan va madaniyat tarixida, aniqrogʻi, mavhumdan aniqlikkacha boʻlgan tarzda oʻrganishi kerak. Muayyan hodisani tahlil qilayotganda, oʻqituvchining vazifasi bolaga uning mohiyatini ajratib olishga yordam berish, keyin esa bu mohiyatning yangi aniq namoyonlarini yaratishdan iboratdir. Bundan oddiy xulosa kelib chiqadi: mavzuga oid predmet materiallarining ochib berilishi – nazariy umumlashtirish,

tushunchalar tizimidagi davrda yuz berayotgan voqealarni ochib berilishini namoyon etadi. Maxsus tayyorlangan mashgʻulot natijasida bola oʻrganilayotgan materialning genetik kelib chiqishini oʻrganishi kerak. “Ta’lim berishda ushbu tamoyilni amalga oshirish bolalardan aniq obyektiv harakatlar orqali koʻpayishi va bir vaqtning oʻzida oʻrganilayotgan tizimning oʻziga xos namoyishlari uchun universal asos boʻlib xizmat qiladigan narsalarning alohida aloqasini oʻrnatishni talab qiladi” [6; 415-b.]. Gʻoya bolaga har qandaydir hodisalarning universal shaklini ta’kidlash, tushuncha mazmunining kelib chiqishini aniqlashdan iborat boʻlgan mazmunli genetik umumlashtirishga yordam berishdan iboratdir. Keyingi oʻzlashtirish mavhumlikdan aniqlikka oʻtish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yondashuv oʻquvchining tafakkur turini ratsional-empirikdan ilmiy- dialektikaga, unumdorlikka oʻzgartirishga qaratilgan. Mazmunli-genetik umumlashtirish ilmiy mavzuning butun “shajara daraxti” oʻsadigan “hujayralar”ning fundamental tushunchalarini muhokama qilishni talab qiladi. Shuning uchun ushbu nazariyaga asoslangan oʻquv dasturi ilmiy- nazariy tushunchalar tizimi sifatida qurilgan. Oʻqitishning yangi mazmunini oʻquvchilar faqat oʻqishga faol yondashishga asoslangan maxsus ishlab chiqilgan metodika yordamida oʻzlashtirishi mumkin. Uning uchun asosiy holat — predmetni oʻzgartiradigan harakatlar, ushbu predmetda umumiylikni kashf etish va ta’lim vazifalarini yechimini topish orqali undan xususiyni ajratishdir. Oʻquv vazifasini yechish usulini oʻzlashtirish boʻyicha oʻquvchining oʻquv faoliyatini tashkillashtirish va turtki berish metodi yetakchi hisoblanadi. Yetakchilik – oʻquv vazifasini hal qilish usulini oʻzlashtirishda oʻquvchining oʻquv faoliyatini tashkil etish va ragʻbatlantirish usulidir. Ushbu jarayon oʻquvchilar uchun muayyan oʻquv vazifasini qoʻyadigan oʻqituvchining yordami bilan amalga oshiriladi; zarurat boʻlganida, oʻquvchilar bilan birgalikda oʻrganilayotgan predmetda muhim boʻlgan jihatni aniqlash va uni yechimini topish shartlarini oʻzgartirish mumkin; qoʻyilgan masalani yechimini mustaqil izlashi uchun oʻquvchiga stimul beradi, ularga amalga oshirilayotgan tafakkur amallarini anglashga va ajratishga yordam beradi.

Shunday qilib, mazmunli umumlashtirish nazariyasida oʻquvchilar ta’lim muammolarini hal qilishda barcha nazariy bilimlarni va tegishli koʻnikmalarni oʻrganadilar, bu esa ularga xususiy holatlarni oʻzlashtirishga qadar, qandaydir umumiylikni oʻzlashtirishga imkon beradi. Muammoni hal qilishning asosiy vositasi sifatida aniq tafakkur harakatlari, xususan, umumlashtirish uchun mos boʻlgan tafakkur harakatlar qoʻllaniladi.

Shuni qayd etishimiz joizki, mazmunli umumlashtirish nazariyasi divergent tafakkurni rivojlantirish masalasini alohida ajratib koʻrsatmaydi.

Oʻquvchilarda intellektual koʻnikmalarini shakllantirish zarurati gʻoyasi ta’lim-tarbiya jarayonini optimallashtirish konsepsiyasida oʻz aksini topdi [5]. Ushbu koʻnikmalar orasida quyidagilar unga tegishli deb hisoblanadi: faoliyatni ragʻbatlantirish, ma’lumotni puxta anglash, mantiqiy eslab qolish, oʻquv materialini mantiqiy tuzish, undagi asosiy narsani ta’kidlash, mashqlarni mustaqil bajarish, oʻquv-bilish faoliyatida oʻzini oʻzi nazorat qilish, muammoli kognitiv vazifalarni hal qila olish qobiliyati. Oʻquvchilar bunday koʻnikmalar tizimini maqsadli, rejali, tizimli ravishda shakllantirish sharti bilan yanada muvaffaqiyatli oʻzlashtiradilar. Oʻquvchilar bajaradigan tadbirlarni murakkablashtirish jarayonida koʻnikmalar asta-sekin mazmun, shakl va tuzilish jihatidan murakkablashadi. Dastlab, harakatlar tashqi, keyin ichki rejada shakllanadi, soʻngra oʻquvchilar koʻnikmalarning mohiyati bilan tanishadilar, keyin ularni turli sharoitlarda ishlatishni oʻrganadilar. Agar oʻquv jarayoni maqbul sharoitlarda davom etsa, intellektual koʻnikmalar muvaffaqiyatli shakllanadi.

Divergent tafakkurni ta'lim jarayoni orqali rivojlantirish zarurligi pedagogik jihatdan ravshan. Biroq, yosh bolaning divergent tafakkurini rivojlantirish muammosining psixologik-pedagogik darajasi yetarli emasligi ushbu yo'ldagi deyarli hal qilib bo'lmaydigan to'siq bo'lib qoladi.

Mazkur yo'nalishdagi mavjud tadqiqotlarni, shuningdek, boshlang'ich sinflar o'quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar tizimini yaratishda, psixologik-pedagogik asoslashda foydalanilishi mumkin bo'lgan tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, quyidagi umumiy ko'rinishga keladigan ilmiy muammo aniqlanadi: har qanday ijodkorlikni rivojlantirish dasturi iqtidorli bolalar uchun foydali bo'ladi, lekin u ixtiyoriy o'quv faoliyati to'g'risida noto'g'ri g'oyalarni shakllantirib, iqtidorli bolalarning me'yoriy rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin. Bunday bolalar uchun maxsus dastur ishlab chiqish kerak, bunda yetakchi o'rinni nafaqat ijodkorlikni rivojlantirish, balki motivatsiyani rivojlantirish va o'quv-ilmiy- tadqiqot faoliyatini mustaqil ravishda tartibga solish qobiliyatini shakllantirish orqali egallash kerak.

Bola faoliyatida divergentlik va konvergentlik bir-biri bilan uyg'unlashadi: u faoliyatning ba'zi tarkibiy qismlarini, masalan, maqsad, konvergent usulda qurishi mumkin, boshqalari, masalan, ushbu maqsadga erishish usullari divergent usulda topilishi mumkin. Bundan tashqari, bola konvergent yoki divergent tarzda izlayotgan faoliyat tarkibiy komponentlarining munosabati, bola obyektni idrok etishda harakatlanishi bilan bir necha bor o'zgarishi mumkin.

## Adabiyotlar/Литература/References


1. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta'siri.Psix.fan.nomz...diss.-Toshkent,2012.–144b.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. – Toshkent, 2003. –276 b.
3. Alimova M.G. Formirovanie divergentnogo mishleniya u studentov pedagogicheskix spesial'nostey v usloviyax sovremennogo vuza//Vestnik Vostochno-Sibirskoy gosudarstvennoy akademii obrazovaniya. 2012. № 17. S. 20-23.
4. Aslanova O.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirish texnologiyasi. – Qarshi: Nasaf, 2019. –143 b.
5. Bahromov F., Burxonov S., Xudayorov O'.. Ming bir boshqotirma. "FUTURE-BOOKS" nashriyoti, Toshkent-2020.-224 bet.
6. Ismailov A. va b. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (uslubiy qo'llanma). Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 112 bet.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I11Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).